


VII. ISTE'MOL BOZORI

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI



**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd so 'm
(2022- yil yanvar-dekabr oylari)**

1 Andijon sh.
7 171,5

2 Shahrixon
2 765,4

3 Asaka
1 974,3

4 Qo'rg'ontep'a
1 308,9

5 Andijon
1 258,7

6 Xo'jaobod
1 075,5

7 Baliqchi
1 047,0

8 Paxtaobod
902,1

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Andijon shahri 32,8 % ulush bilan 7 171,5 mlrd so 'mni tashkil etdi.



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Xonobod sh. 1,0 % ulush bilan 213,8 mlrd so 'mni tashkil etdi.

Viloyat bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 21 889,2 mlrd so 'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 111,3 % ni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida 89,1 % ulush kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va 10,9 % ulush yirik koixonalar hissasiga to'g'ri keldi.



Marhamat
874,2

Oltinko'l
774,3

Izboskan
659,8

Buloqboshi
647,7

Jalaquduq
633,2

Bo'ston
322,2

Ulug'nor
260,6

Xonobob sh.
213,8

Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o'sish sur'atlari

| | Jami, mlrd so'm | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd so'm | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd so'm | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda |
|-----------------------------|--------------------|---|--------------------------------------|---|---|---|
| Andijon viloyati | 21 889,2 | 111,3 | 2 390,8 | 123,1 | 19 498,4 | 110,1 |
| Andijon sh. | 7 171,5 | 121,9 | 1 966,0 | 137,9 | 5 205,5 | 116,8 |
| Xonobod sh. | 213,8 | 104,4 | 7,6 | 72,1 | 206,2 | 106,1 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oltinko'l | 774,3 | 106,2 | 12,4 | 42,6 | 761,9 | 108,9 |
| Andijon | 1 258,7 | 102,0 | 115,7 | 68,9 | 1 143,0 | 107,2 |
| Baliqchi | 1 047,0 | 108,7 | 38,3 | 113,0 | 1 008,7 | 108,5 |
| Bo'ston | 322,2 | 100,1 | 16,0 | 65,2 | 306,2 | 102,9 |
| Buloqboshi | 647,7 | 101,0 | 10,0 | 65,0 | 637,7 | 101,8 |
| Jalaquduq | 633,2 | 100,3 | 33,3 | 2,1 m. | 599,9 | 97,5 |
| Izboskan | 659,8 | 100,8 | 10,6 | 76,9 | 649,2 | 101,4 |
| Ulug'nor | 260,6 | 119,0 | 2,8 | 117,3 | 257,8 | 119,1 |
| Qo'rg'ontep'a | 1 308,9 | 100,4 | 21,1 | 68,9 | 1 287,8 | 101,1 |
| Asaka | 1 974,3 | 105,6 | 55,8 | 93,2 | 1 918,5 | 106,0 |
| Marhamat | 874,2 | 103,3 | 18,7 | 83,9 | 855,5 | 103,8 |
| Shahrixon | 2 765,4 | 113,1 | 31,3 | 89,8 | 2 734,1 | 113,5 |
| Paxtaobod | 902,1 | 113,1 | 24,8 | 88,8 | 877,3 | 113,9 |
| Xo'jaobod | 1 075,5 | 117,5 | 26,4 | 95,2 | 1 049,1 | 118,2 |

2021 - yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari viloyatning Andijon sh. (121,9 %), Ulug'nor (119,0 %), Xo'jaobod (117,5 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, eng yuqori ko'rsatkich Andijon shahrida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021 - yilning mos davriga nisbatan 23,1 % ga o'sdi va 2 390,8 mlrd so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,9 % ulushiga to'g'ri keldi.

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da

Yirik korxonalar

Andijon sh.

82,2

Andijon

4,8

Asaka

2,3

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Andijon sh.

26,7

Shahrixon

14,0

Asaka

9,8

Eng past ulushga ega hududlar, % da

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 19 498,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 10,1 % ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,1 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalar

Ulug'nor

0,1

Xonobod sh.

0,3

Buloqboshi

0,4

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Xonobod sh.

1,1

Ulug'nor

1,3


Bo'ston

1,6



Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hududlar kesimida ulushi, foizda

Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Ulug‘nor (98,9 %), Shahrixon (98,9 %), Buloqboshi (98,5 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,9 % ni tashkil etib, eng katta ulush Andijon shahrida (27,4 %), Andijon (9,2 %), Jalaquduq (5,3 %), Bo‘ston (5,0 %) tumanlarida kuzatildi.



Yirik korxonalar

**Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik subyektlari**

**Andijon viloyati bo'yicha aholi jon boshiga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasi
hajmi va o'sish sur'atlari**


2022- yilning yanvar-dekabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 6 657,1 ming so'mni (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 9,1 % ga oshdi) tashkil etdi.

Hududlar kesimida ma'lumot


| | Hajm, ming so'm | 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da |
|-------------------------|--------------------|---|
| Andijon viloyati | 6 657,1 | 109,1 |
| Andijon shahar | 15 479,1 | 119,5 |
| Xonobod shahar | 4 804,8 | 102,3 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Oltinko'l | 4 143,1 | 103,8 |
| Andijon | 4 545,6 | 99,7 |
| Baliqchi | 5 004,6 | 106,6 |
| Bo'ston | 4 267,0 | 97,9 |
| Buloqboshi | 4 364,6 | 99,1 |
| Jalaquduq | 3 275,9 | 98,4 |
| Izboskan | 2 660,4 | 99,0 |
| Ulug'nor | 4 176,7 | 116,8 |
| Qo'rg'ontep'a | 5 840,6 | 98,6 |
| Asaka | 5 744,3 | 103,3 |
| Marhamat | 4 840,7 | 101,1 |
| Shahrixon | 8 818,4 | 110,7 |
| Paxtaobod | 4 465,8 | 110,6 |
| Xo'jaobod | 9 295,3 | 114,7 |

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori Andijon shahri (15 479,1 ming so'm), Xo'jaobod (9 295,3 ming so'm) va Shahrixon (8 818,4 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi*



Viloyat bo‘yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 726,9 mlrd so‘mni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 13,0 % ga oshdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma’lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo‘jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 988,8 mlrd so‘mni (o‘zgarish sur’ati 123,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 1 738,1 mlrd so‘mni (o‘zgarish sur’ati 107,7 %) tashkil etdi.



* Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagи tadbirkorlar (YTT)ni qo‘shtagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari


**Uyushmagan savdo aylanmasida dehqon va chorva bozorlari savdo
aylanmasi hajmi va o'sish sur'atlari**

| | Jami, mlrd so'm | 2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda | Dehqon bozorlari, mlrd so'm | 2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda | Chorva (parranda) bozorlari, mlrd so'm | 2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan, foizda |
|-----------------------------|--------------------|---|-----------------------------------|---|---|---|
| Andijon viloyati | 2 726,9 | 113,0 | 988,8 | 123,6 | 1 738,1 | 107,7 |
| Andijon sh. | 491,5 | 106,7 | 247,4 | 129,4 | 244,1 | 90,6 |
| Xonobod sh. | 10,1 | 3,3 m. | 10,1 | 3,3 m. | - | - |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oltinko'l | 45,6 | 100,7 | 18,2 | 97,2 | 27,4 | 103,1 |
| Andijon | 81,8 | 111,9 | 81,8 | 111,9 | - | - |
| Baliqchi | 190,4 | 128,0 | 30,7 | 158,6 | 159,7 | 123,4 |
| Bo'ston | 18,5 | 91,4 | 7,1 | 127,5 | 11,4 | 77,7 |
| Buloqboshi | 102,8 | 96,0 | 26,2 | 125,9 | 76,6 | 88,8 |
| Jalaquduq | 59,1 | 62,4 | 9,2 | 41,4 | 49,9 | 68,9 |
| Izboskan | 24,0 | 86,5 | 6,7 | 86,5 | 17,3 | 86,5 |
| Ulug'nor | 105,2 | 180,3 | 8,9 | 9,3 m. | 96,3 | 167,8 |
| Qo'rg'ontep'a | 55,1 | 74,5 | 25,7 | 91,8 | 29,4 | 63,9 |
| Asaka | 296,1 | 91,5 | 114,0 | 74,1 | 182,1 | 107,2 |
| Marhamat | 160,1 | 88,5 | 45,5 | 69,6 | 114,6 | 99,2 |
| Shahrixon | 654,4 | 134,8 | 253,2 | 2,4 m. | 401,2 | 105,3 |
| Paxtaobod | 298,8 | 162,0 | 80,0 | 125,4 | 218,8 | 181,3 |
| Xo'jaobod | 133,4 | 106,3 | 24,1 | 111,4 | 109,3 | 105,3 |

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligidagi yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 988,8 mlrd so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 1 738,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

Uyushmagan savdo tovar aylanmasi: Dehqon bozori

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 988,8 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (328,0 mlrd so‘m) to‘g‘ri keldi.



Don mahsulotlari (mosh, loviya, no‘xat, guruch va boshqalar)



Chorva mollari va parrandalar uchun har xil yem-xashaklar

6,8
mlrd so‘m

**Uyushmagan savdo tovar aylanmasi:
Chorva (parranda) bozorlari, *mlrd so‘m***



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi 1 738,1 mlrd so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosи 1 438,0 mlrd so‘mni, qo‘y va echkilar 259,4 mlrd so‘mni, otlar 29,1 mlrd so‘mni, parranda va quyonlar 11,6 mlrd so‘mni tashkil etdi.

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI


Savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining hajmi va o'sish sur'atlari

| | Jami, mlrd so'm | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd so'm | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd so'm | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda |
|-----------------------------|--------------------|---|-----------------------------------|---|--|---|
| Andijon viloyati | 324,5 | 115,2 | 21,9 | - | 302,6 | 107,4 |
| Andijon sh. | 139,2 | 106,2 | 19,1 | - | 120,1 | 91,6 |
| Xonobod sh. | 4,2 | 106,4 | - | - | 4,2 | 106,4 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oltinko'l | 13,7 | 125,8 | - | - | 13,7 | 125,8 |
| Andijon | 28,5 | 101,1 | - | - | 28,5 | 101,1 |
| Baliqchi | 5,1 | 116,9 | - | - | 5,1 | 116,9 |
| Bo'ston | 13,6 | 3,5 m. | - | - | 13,6 | 3,5 m. |
| Buloqboshi | 4,2 | 135,6 | - | - | 4,2 | 135,6 |
| Jalaquduq | 7,2 | 118,9 | - | - | 7,2 | 118,9 |
| Izboskan | 11,3 | 129,4 | - | - | 11,3 | 129,4 |
| Ulug'nor | 3,4 | 100,3 | - | - | 3,4 | 100,3 |
| Qo'rg'ontepə | 12,2 | 128,7 | 2,8 | - | 9,4 | 98,8 |
| Asaka | 20,3 | 100,4 | - | - | 20,3 | 100,4 |
| Marhamat | 8,1 | 124,7 | - | - | 8,1 | 124,7 |
| Shahrixon | 35,0 | 121,9 | - | - | 35,0 | 121,9 |
| Paxtaobod | 8,5 | 110,0 | - | - | 8,5 | 110,0 |
| Xo'jaobod | 10,0 | 181,9 | - | - | 10,0 | 181,9 |

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,5 % ulushni tashkil etib, 324,5 mlrd so'mga yetdi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 15,2 % ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining 93,2 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



**Ulgurji savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes
subyektlarining hajmi va o'sish sur'atlari**

| | Jami, <i>mlrd so'm</i> | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, <i>mlrd so'm</i> | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda | Mikrofirma va kichik korxonalar, <i>mlrd so'm</i> | 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, foizda |
|-----------------------------|---------------------------|---|--|---|--|---|
| Andijon viloyati | 5 626,9 | 110,0 | 411,7 | 61,3 | 5 215,2 | 117,4 |
| Andijon sh. | 2 387,8 | 104,2 | 340,2 | 68,0 | 2 047,6 | 114,3 |
| Xonobod sh. | 13,3 | 38,4 | 0,2 | 96,8 | 13,1 | 38,0 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Oltinko'l | 330,6 | 188,8 | 0,4 | 104,8 | 330,2 | 189,0 |
| Andijon | 569,6 | 144,8 | 53,1 | 56,2 | 516,5 | 172,8 |
| Baliqchi | 365,7 | 159,8 | 0,6 | 70,9 | 365,1 | 160,1 |
| Bo'ston | 205,6 | 115,5 | 0,2 | 99,3 | 205,4 | 115,5 |
| Buloqboshi | 106,6 | 182,3 | - | - | 106,6 | 182,3 |
| Jalaquduq | 44,5 | 79,0 | 0,1 | 21,1 | 44,4 | 79,5 |
| Izboskan | 104,5 | 123,9 | 0,6 | 93,0 | 103,9 | 124,1 |
| Ulug'nor | 54,1 | 2,2 m. | 0,2 | 140,0 | 53,9 | 2,2 m. |
| Qo'rg'ontep'a | 111,3 | 190,2 | - | - | 111,3 | 190,2 |
| Asaka | 124,3 | 66,4 | 0,1 | 20,4 m. | 124,2 | 66,3 |
| Marhamat | 47,0 | 2,7 m. | 14,0 | 36,1 m. | 33,0 | 191,2 |
| Shahrixon | 1 014,3 | 86,2 | 0,9 | 1,2 | 1 013,4 | 91,8 |
| Paxtaobod | 82,5 | 81,0 | 0,5 | 99,5 | 82,0 | 80,9 |
| Xo'jaobod | 65,2 | 132,2 | 0,6 | 90,8 | 64,6 | 132,7 |

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari ega yirik korxonalar Marhamat (36,1 m.), Asaka (20,4 m.) va Ulug'nor (140,0 %) tumanlarida kuzatildi.